

PEDAGOGIKA KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHDA OILA VA JAMIYATNING O'RNI

*Orzuyeva Sultanoy
Qulmonova Muborak
Denov Tadbirkorlik va
Pedagogika Instituti*

Anotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik konfliktlar mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari hamda ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, bunday ziddiyatlarni samarali hal etishda oila va jamiyatning tutgan o'rni, ularning o'zaro hamkorligi hamda pedagogik muhitni sog'lomlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada "maktab-oila-jamiyat" uchligi asosida konfliktlarni bartaraf etishning samarali usullari, o'qituvchining kommunikativ madaniyati va ota-onalar bilan o'zaro muloqotning roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik konflikt, oila, jamiyat, ta'lim jarayoni, hamkorlik, muomala madaniyati, psixologik muhit, o'qituvchi, o'quvchi, muhosasa kelish.

Annotation: This article analyzes the essence of pedagogical conflicts, their causes, and their impact on the educational process. It highlights the significant role of the family and society in resolving such conflicts effectively, emphasizing their mutual cooperation and contribution to creating a healthy pedagogical environment. The paper also discusses effective methods of resolving conflicts based on the "school-family-society" triad, the importance of teachers' communicative competence, and constructive dialogue with parents.

Keywords: pedagogical conflict, family, society, educational process, cooperation, communication culture, psychological environment, teacher, student, compromise.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность педагогических конфликтов, их причины и влияние на образовательный процесс. Освещается роль семьи и общества в эффективном разрешении таких конфликтов, их взаимодействие и значение в формировании здоровой педагогической среды. В статье также анализируются методы урегулирования конфликтов на основе триады «школа-семья-общество», роль коммуникативной культуры педагога и сотрудничества с родителями.

Ключевые слова: педагогический конфликт, семья, общество, образовательный процесс, сотрудничество, культура общения, психологическая среда, учитель, ученик, компромисс.

Kirish: Konflikt - o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvidir. Konfliktning yechimini topish – konfliktli vaziyatni yo'qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga solish bilimlari va ko'nikmalari majmuidan iboratdir. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik konfliktlar — bu o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona o'rtasidagi fikr, xulq yoki manfaat to'qnashuvlaridir. Bunday holatlar tabiiy bo'lsa-da, ularni to'g'ri boshqarish ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi. Konfliktlarni bartaraf etishda nafaqat maktab, balki oila va jamiyatning faol ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik konflikt — bu o'qituvchining pedagogik faoliyati davomida paydo bo'ladigan psixologik, axloqiy yoki kommunikativ nomuvofiqlik holati bo'lib, u o'quv jarayoniga, shaxslararo munosabatlarga va ta'lim muhitiga ta'sir ko'rsatadi. Har qanday konfliktning ildizi insonlar o'rtasidagi muloqot va o'zaro tushunish darajasiga borib taqaladi. Ta'lim muhitida esa bu yanada murakkab, chunki o'qituvchi — yetakchi, tarbiyachi va baholovchi rolda, o'quvchi esa o'rganuvchi va shaxs sifatida shakllanayotgan jarayonda bo'ladi. Shuning uchun bu ikki tomon o'rtasidagi har qanday tushunmovchilik pedagogik konflikt sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Pedagogik konflikt – ta'lim tizimida pedagogik konfliktlarni vujudga kelish sabablari va tabiatini o'rganadigan, ularni bartaraf etish usullari va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadigan nazariy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Pedagogik konflikt ijtimoiy hayotdagi ko'p uchraydigan holat hisoblanib, tabiiyki jamiyatning kuchli ijtimoiy munosabatlari to'plangan bo'laklari maktab, oliy va o'rta maxsus ta'limda ko'proq ko'zga tashlanadi. Ta'limda o'z “Men”ini qattiq hurmat qilishga odatlangan o'quvchi yoki talabalar orasida konfliktli munosabatlarni bo'lishi tabiiy hodisadir, lekin amaliy ko'nikmalarga, kuchli tayyorgarlikka ega bo'lmagan pedagog yoki rahbarlar ham konfliktli munosabatlarni vujudga kelishiga sharoit yaratib berishi mumkin.

Pedagogik konflikt, odatda, ikki yo'nalishda ko'rinadi:

1. Konstruktiv konflikt – muammoni ochiq muhokama qilish, yechim topish, o'zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi.
2. Destruktiv konflikt – salbiy emotsiyalar, tushunmovchilik va ishonchsizlikni kuchaytiradi, ta'lim jarayoniga zarar yetkazadi.

Pedagogik konfliktlarning asosiy sabablari

1. Kommunikativ muammolar – noto'g'ri so'z tanlash, emotsional nazorat yo'qligi, o'zaro tinglamaslik.
2. Psixologik omillar – shaxslararo mos kelmaslik, o'qituvchining stress holati yoki o'quvchining o'zini ifoda etishdagi qiyinchiliklari.
3. O'qituvchining pedagogik uslubi – haddan ortiq talabchanlik, qat'iy nazorat yoki adolatsiz baholash.
4. Ota-onaning noto'g'ri aralashuvi – bolaning xatti-harakatlarini bir tomonlama himoya qilish yoki o'qituvchi obro'sini pasaytirish.

5. Jamiyatdagi qadriyatlar o'zgarishi – yoshlar orasida mustaqil fikrlash kuchayishi, lekin muloqot madaniyati yetishmasligi.

Konfliktlarni bartaraf etishda oilaning roli

Oila — bu jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy birligi bo'lib, insonning ma'naviy, axloqiy va hissiy shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir bolaning dunyoqarashi, muloqot madaniyati, muammolarni hal etish ko'nikmalari, eng avvalo, oila muhitida shakllanadi. Shu sababli pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila hal qiluvchi o'ringa ega. Konfliktlarni keltirib chiqaradigan sabablardan eng katta va dolzarbi bu bolalikdagi travmalar hamda oiladagi tarbiyada tajriba yo'qligi hisoblanadi. Ba'zi oilalar o'z ota-onasidan ko'rgan modelni ongsiz ravishda takrorlaydi yoki bolaligida mehirsiz, e'tiborsiz va noto'g'ri muomala ko'rgan insonlar ham shunday muomala usulini oilada qo'llashadi, bu noto'g'ri hisoblanadi. Zamon o'zgaryaptimi ushbu zamonga qarab oilada dunyoqarash ham muomala madaniyati ham o'zgarib boradi. Konfliktlarni keltirib chiqaradigan yana bir muhim ko'p uchraydigan va kuchli ta'sir ko'rsatadigan sabablardan biri bu stress va tashqi bosimlar hisoblanadi. Avvalo moliyaviy muammolar natijasida, ishdagi charchoq yoki turli ziddiyatlar natijasidagi stress o'z navbatida oilaga qattiq tasirini ko'rsatadi, oila a'zolaridagi sog'liq muammolari, qarindoshlar bilan kelishmovchiliklar - bular psixik zo'riqishni oshiradi va natijada oila a'zolari o'rtasida turli mojarolarga sabab bo'ladi. Yuqoridagi barcha oiladagi konfliktlarni vaqtida nazorat qilib, tahlil qilib, yoki psixolog yordamidan foydalanib, uni oldi olinmasa bu kattadan katta nizolarga olib borishi, jamiyat uchun noqobil farzandlar yetishib chiqishi va alal oqibat oila barbod bo'lishiga ham olib kelishi mumkin. Oilada paydo bo'layotgan konfliktlar tabiiy holat bo'lib, ularni samarali tarzda bartaraf etish uchun quyidagi turli yondashuv va yechimlarni qo'llash mumkin. Avvalo oilada o'zaro muloqotni yaxshilash lozim. Har bitta oila a'zosi o'z fikrini ochiq va erkin, lekin hurmat bilan ifoda etishi kerak. Oilada bir birlarini tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur ya'ni, gapirayotgan kishini diqqat bilan tinglash, fikrini to'g'ri tushunishga harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolari o'z hissiyotlarini doim boshqara olishlari kerak, jahl ustida hech qachon qarorlar qabul qilmaslik alohida ahamiyatga ega. Oilada kelib chiqayotgan nizoni yoki muammoning ildizini aniqlash, mojarolarni yuzaki sabab emas, balki chuqurroq yondashib asl sabablarini aniqlab, aynan shu asosda yechim izlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Turli ziddiyatlar paytida har ikki tomon uchun maqbul bo'lgan o'rtacha yechimni topish kerak. Nizolarni cho'zmaslik, imkon qadar tez va sokin holatda muhokama qilib olib yechim topish kerak. Oilada doim oilaviy qoidalar va me'yorlar belgilangan bo'lishligi ham muhimdir, Shuningdek oilada har bir a'zosining vazifasi va huquqlari aniq bo'lishi nizolarni kamaytiradi. Oiladagi nizolarni oila ichida bartaraf etishni iloji bo'lmagan hollarda psixologik yordamga murojaat qilish, psixologik konsultatsiya olish muhim sanaladi. Va yana eng muhimi bolalarni

oldida mojaro qilish, tortishish urushish va hokazo turli ziddiyatlardan tiyilish kerak sababi bolaning psixikasiga kuchli ta'sir qilib, juda ham salbiy yomon odatlarga olib kelishi mumkin

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday degan edilar:

“Oilada muhit sog‘lom bo‘lsa, jamiyat ham sog‘lom bo‘ladi. Har bir ota-ona farzandining nafaqat moddiy, balki ma‘naviy tarbiyasiga ham e’tibor berishi kerak. Chunki bu – kelajagimizning poydevori.”

Bu fikrlar shundan dalolat beradiki, oiladagi sog‘lom muhit nafaqat shaxsning shakllanishiga, balki ta'lim muassasalaridagi munosabatlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki oilada hurmat, sabr, tinglash va murosaga kelish qadriyatlari singdirilgan bola, maktabda ham shunday xulq-atvorni namoyon etadi.

Oilaning pedagogik konfliktlarni hal etishdagi asosiy funksiyalari 5 xil ko'rinishga ega.

1. Psixologik qo'llab-quvvatlash.

Ota-ona bolaga emotsional tayanch bo'lishi kerak. U o'zini tinglaydigan, tushunadigan oila a'zolari borligini his etsa, maktabdagi ziddiyatlarni og'ir qabul qilmaydi.

2. O'qituvchi bilan hamkorlik.

Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi doimiy aloqa, ochiq muloqot — konfliktlarning oldini olishda eng muhim vosita. Farzand tarbiyasida yagona yondashuv bo'lishi kerak.

3. Tarbiyada ijobiy namuna ko'rsatish.

Bola ota-onaning xatti-harakatini kuzatib o'rganadi. Agar ota-ona bahsli holatlarda xotirjamlik, sabr va muloqot madaniyatini namoyon etsa, bola ham shu yo'l bilan nizolarni hal qilishni o'rganadi.

4. Farzandga ishonch bildirish.

Ota-onaning ishonchi bolada o'z fikrini madaniyatli tarzda ifoda etish va o'zini himoya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu esa maktabda o'qituvchi va sinfdoshlar bilan ijobiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

5. Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish.

Maktablarda o'tkaziladigan “Ota-onalar universiteti”, “Ochiq eshiklar kuni”, “Pedagogik muloqot” kabi tadbirlar oilaning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi va konfliktlarning oldini oladi.

Demak, oila — pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning boshlang'ich bosqichidir. Ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi samimiy aloqa, bola tarbiyasidagi hamkorlik, mehr-muhabbat va o'zaro hurmat muhitida har qanday ziddiyat tinch yo'l bilan hal etadi.

Abdulla Avloniy o'zining **“Turkiy guliston yoxud axloq”** asarida shunday yozadi:

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”

Bu hikmat ota-onalarning har bir qarori farzand taqdiriga, demak jamiyat kelajagiga bevosita ta'sir qilishini anglatadi. Shuning uchun ota-onalar tarbiya masalasiga chuqur bilim bilan yondashishlari zarur.

Abu Nasr Forobiy esa **“Fozil odamlar shahri”** asarida shunday deydi:

“Insonning komillikka erishuvi uchun bilim, axloq va tarbiya bir butun holda bo‘lishi zarur.”

Bu fikr ota-onaning bilimli va madaniyatli bo‘lishi bolaga eng katta namuna ekanligini ko‘rsatadi. Agar ota-ona o‘zi o‘qimasa, o‘qishning qadriga yetmasa, farzanddan ham o‘sha qadriyatni kutish qiyin bo‘ladi.

Xulosa: Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish faqat o‘qituvchi zimmasidagi vazifa emas. Buning uchun oila, ta’lim muassasasi va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Faqat shundagina sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro hurmat va samarali ta’lim jarayoni ta’minlanadi. Shunday qilib, oilada kelib chiqayotgan nizolarni oldini olish orqali sog‘lom muhitni shakllantirish – bu har bir oila a’zosining baxtli va barqaror hayot kechirishi uchun muhim omil hisoblanadi. Farzandlar kamoli, oila farovonligi jamiyatga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shaxsning yorqin kelajakka erishishi, katta muvaffaqiyatlar qozonishi, go‘zal xulqi, namunali odobi bularning bariga oiladagi tarbiya sababchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N. A. Sog‘inov, F. A. Akramova, G. Solihova,
1. G. Niyozmetova. OILA PSIXOLOGIYASI. SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
2. AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT —2010
3. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya.-T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009 y. - 400 b.
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqisod-moliya, 2011.- 420 b. Qo‘shimcha adabiyotlar
5. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. -T.: Fan va texnologiya, 2008.- 288 b.
6. Leonov N.I. Konfliktologiya. Moskva-Voronej, 2006. - 232 s.
7. Abdurazzoqova Z. Psixologiya: oila va jamiyat. — Toshkent: Fan va texnologiya,2019.
8. Nazarova A. Oilaviy psixologiya asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021
9. Isomiddinov M. Oila va nikoh psixologiyasi. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
- 10.Freud, Z. Psixoanaliz va inson tabiati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.2004
- 11.To‘rayev, Y. Psixologik xizmat va maslahat asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2015